

## NEMIS TILI DARSLARIDA MUAMMOLI O'QITISHNI METODIKASI

*Назаровга Низора Эрдошовна*

*ЎЗДЖТУ Роман-герман филологияси факультети  
немис тили амалий фанлар кафедраси стажёр ўқитувчиси*

**Annotatsiya:** Maqolada Nemis tili darslarida muammoli o'qitishni metodikasi va undan foydalanish yo'llari haqida keng ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** muammoli o'qitish, mustaqil fikrlash, muammoli vazifalar, muammoli vaziyatlar, shaxsiy yondashuv.

**Abstract:** The article provides extensive information about the method of problem-based teaching and ways of using it in German language classes.

**Key words:** problem teaching, independent thinking, problem tasks, problem situations, personal approach.

**Аннотация:** В статье представлена обширная информация о методе проблемного обучения и способах его использования на уроках немецкого языка.

**Ключевые слова:** проблемное обучение, самостоятельное мышление, проблемные задачи, проблемные ситуации, личностный подход.

### KIRISH:

O'quv jarayonini takomillashtirish metodlari muammoli o'qitish jarayonida samaradorligi bilan alohida ahamiyatga ega. Ulardan talaba ijodiy shaxsni bo'lg'usi mutaxassisni shakllantirish nuqtai nazardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bunday o'qitishda talabalarning bilish mustaqilligini shakllantirish va rivojlantirish katta ahamiyatga ega, chunki u talabalarda bilimga bo'lgan barqaror qiziqishni shakllanganligini, tashabbus va mustaqil faoliyatning muntazamligini, muayyan aqliy harakatlar va aqliy sifatlar tizimini ko'zda tutadi. Muammoli o'qitishda pedagogik faoliyatning xususiyatlari o'quv axborotlari mazmunini muammoli vazifalar va muammoli vaziyatlarga ko'chirish orqali maqsadlarni oydinlashtirish jarayonidan iborat bo'ladi.

Ijodiy o'quv faoliyati muammoli o'qitishning asosiy qoidasini saqlagan holda ma'lum darajada harakatlarga erkinlik berish va bu harakatlarni bilish jarayonining butun tuzulmasi tizimida tartibga tushurish bilan boshqariladi.

### ASOSIY QISM:

Muammoli o'qitishdan foydalangan holdagina talabalarda o'quv muammolari va kasbiy vaziyatlarni yechishda ilmiy tekshirish jihatdan yondashuvni tarbiyalash, mustaqil bilish malakasi va metodlarni shakllantirish mumkin. Muammoli o'qitishni qo'llash, bilishni tushunishni shakllantirishga yordam beradi, pedagogik ijod

va kasbiy mahoratni, psixologik hamda kasbiy tayyorgarlikni shakllantiradi. Muammoli o'qitish talabalarning faqat tinglovchi emas, balki faol ishtirokchi bo'lishini taqazo qiladi. U ilmiy tafakkur uslubini rivojlantiradi. Muammoli vazifalar o'zida operatsion-prosessual tarkiblarni birlashtiradi. Ular axborot mazmunini yangilash va yangi bilimlar olish orqali tahlilga, tushunish va izohlashga, o'rganilayotgan ilmiy muammolarni nazariy jihatdan fikrlashga diqqatini qaratadi.. Muammoli o'qitishni tashkil etish natijasida talabalarda kasbiy bilim va ko'nikmalar hamda fikrlash qobiliyatlarini o'stirishning ijodiy imkoniyatlari yuzaga keladi.

Muammoli texnologiyani amalga oshirish uchun quyidagilarga rioya qilish kerak bo'ladi:

eng dolzarb, ahamiyatli vazifalarni tanlash;

o'quv ishlarining barcha turlarida muammoli o'qitishning o'ziga xos xususiyatlarini belgilash;

muammoli o'qitishning eng maqbul tizimini ishlab chiqish, darslik, o'quv va metodik qollanmalar, tavsiyanomalar yaratish;

shaxsiy yondashuv va o'qituvchi mahorati.

Masalan, nemis tili darslarida turli mavzularga oid osondan murakkabga qaratilgan har xil topshiriqlarni ishlab chiqish mumkin. Bu topshiriqlar talabani zerktirmasligi, uni fanga bo'lgan qiziqishini orttirishi hamda topshiriqlar o'tilgan mavzular bo'yicha bo'lishi kerak. Darslarda lug'atlardan samarali foydalanish kerak. Topshiriqlarni bajarishga bo'lgan qiziqish talabani lug'atdan foydalanishga majbur qiladi. Agar talaba notanish so'z tarjimasini o'zi izlab topsa, bu so'zni u xotirasida uzoq vaqt saqlaydi. Chunki u lug'atdan o'sha so'zning tarjimasini topguncha beixtiyor shu so'zning yozilishiga bir nechabor qaraydi va takrorlaydi. Bu esa o'sha so'zning yodda qolishiga sabab bo'ladi. O'qituvchining galdagi vazifasi esa shu so'zni qisqa gaplarda va matnlarda qo'llashni o'rgatishdir. O'qishni, yozishni, gaplar va matnlar tuzishni oson o'zlashirayotgan har qanday o'quvchining tilga bo'lgan ishtiyoqi yanada ortadi. Endi u o'zi xohlab o'qituvchidan topshiriqlarni so'raydi. So'ngra esa o'zi mustaqil ravishda vazifalarni bajaradi.

Deylik, "yil fasllari" mavzusi yuzasidan topshiriqlarni tuzish kerak. Avvalo talabalarga yil fasllarining nemis tilidagi nomlari, yil fasllarining o'ziga xosliklari tushuntirilgan va o'tilgan bo'lishi kerak. Boshida ularga turli rasmlar va shu rasmlarni ifodalovchi gaplar beriladi. Ular mustaqil ravishda qaysi gap qaysi rasmga tegishli ekanini topishadi. O'qituvchi savolga javob olishi bilanoq to'g'ri va noto'g'ri javoblarni baholamasligi, balki talabalardan savollarga har tomonlama javob talab qilishi, noto'g'ri javoblari esa to'g'risini aytmasdan ularni to'g'rilash imkonini berish kerak. Talabalar lug'atdan foydalangan holda vazifalarni bajarishi lozim.

Bilamizki, chet tili darslarida albatta matnlar ustida ham ishlash kerak. Bu talabaga bir oz qiyinlik qiladi va zeriktiradi. Buning uchu ularga matn ichidagi tanish

so'zlarni toping yoki yil fasllari" matnida keltirilgan ob-havoga oid gaplarni aniqlang kabi topshiriqlar berilsa, u o'ziga tanish bo'lgan so'zlar yoki gaplarni topish jarayonida beixtiyor matnni o'qib chiqadi. Yuqoridagi savolimizga javob olgandan so'ng, qaysi notanish so'zlarni uchratdingiz? - degan savolni berish mumkin. Bir talaba uchun notanish bo'lgan so'z ikkinchisi uchun tanish bo'lishi mumkin. Ular o'zaro muhokamaga kirishadi. Yakunda barcha uchun noma'lum bo'lgan so'zlar yana lug'at yordamida aniqlanadi. Bu jarayonda o'qituvchi kuzatuvchi vazifasini bajaradi, talaba esa faol bo'ladi.

O'qituvchi talabalar tomonidan bajarilgan ishlar natijasini baholab, u ishda muvaffaqiyatli qatnashganlarni alohida ta'kidlab o'tadi. Shuningdek, ayrim kamchiliklarga yo'l qo'yganlarni ham qayd qiladi va ishlash usullarini kelgusida takomillashtirish, ya'ni keyingi mashg'ulotlarda qanday vazifalar qo'yilishini belgilab beradi. Bu jarayonlar talabani o'ylashga va o'z ustida ishlashga yo'naltiradi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Салойдинов, С. К. (2021). Образовательные кредиты в Узбекистане. "Экономика и соцум", 12(91), 470-472.
2. Салойдинов, С. К. (2021). Спрос на рынке дифференцированных продуктов. "Экономика и социум", 12(91), 473-476.
3. Садойдинов, С. К. (2022). С паровой турбиной 471 МВт на Талимарджанской ТЭЦ расчет электрических режимов при максимальной зимней нагрузке. "Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARIIS)", Special issue, 116-121.
4. Х.Т. Омонов, Н.Х. Ходжаев, С.А. Мадиярова, Е.У. Ещанов Педагогические технологии и педагогическое мастерство. Ташкент-2009
5. Н.Н. Азизходжаева - Педагогические технологии и педагогическое мастерство. Ташкент 2006 г.
6. Шритте I международный. Невау А1/1, 2006 г.
7. Салойдинов С.К. (2021). Создание технико-экономического механизма снижения энергопотребления на хлопкоочистительных предприятиях. «Академические исследования в области педагогических наук», 2(9).886-889. [hups://doi.org/10.24412/2181-1385-2021-9-886-889](https://doi.org/10.24412/2181-1385-2021-9-886-889)